

### Adabiyot 10-sinf IV chorak test topshiriqlari.

#### Tuzuvchi Nosrijon Ahrorov (Yangi darslik 2023-yilgi)

1. “Abulfayzxon” dramasi xonning haram boshlig’i kim?

A) Ulfat B) Xo’ja Kalon C) Mir Vafo D) Davlat

2. “Abulfayzxon” dramasi “Tuhfayi xoniy” asarining muallifi kim?

A) Mirzo Mahdi B) A. Fitrat C) Ulfat D) Mir Vafo

3. Fitratning she’riy to’plamini toping.

A) “Sayha” B) “Munozara” C) “Qiyomat” D) “Shashamaqom”

4. “Abulfayzxon” dramasi Buxoro katta mullasi kim?

A) Hakimbiy B) Oxund C) Xo’ja Kalon D) Doniyolbiy

5. “Abulfayzxon” dramasi “Podsholik qon bilan sug’oriladigan bir og’ochdir” so’zlari kim tomonidan aytilgan?

A) Mir Vafo B) Hakimbiy C) Ulfat D) Qozi Nizom

6. “Abulfayzxon”da To’g’ayqulbek qayerning begi edi?

A) mang’it B) kenagas C) qipchoq D) qalmoq

7. Abulfayzxon “Davlatimizning buyuk-buyuk teraklarini o’z qo’lingiz bilan yiqitqverasiz” deya noligan qahramon kim?

A) Ulfat B) Rahimbiy C) Mir Vafo D) Qozi Nizom

8. “Xonning buyrug’i Arkdan Mir arabgacha yurmaydur”. Ushbu so’z kimning nutqidan olingan?

A) Rahimbiy B) Farhod otaliq C) Hakimbiy D) Ulfat

9. Rahimbiy Eron sardorlariga qancha tanga berishin aytadi?

A) 20 ming B) 200 ming C) 2 ming D) 220 ming

10. Daramatik asarlarda qahramonlarning o’z-o’ziga qaratilgan nutqi qanday ataladi?

A) diolog B) fars C) monolog D) solilokviy

11. ”G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” asarida yosh askarlarni tayyolash jarayonida qiynoqqa solganzobit kim edi?

A) Xaye Vestxus B) Myuller C) Frans Kemmerix D) Ximmelshtos

12. ”G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” asarini kim o’zbek tiliga tarjima qilgan?

A) Nizom Komil B) Jamol Kamol C) Kamoliddin Rahimov D) Qayum Karimov

13. ”G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” asarida voqealar kimning tilidan bayon qilinadi?

A) Xaye Vestxus B) Kantorek C) Paul Boymer D) Ximmelshtos

14. ”G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” asarida “ Pakana, chorpahil, sap-sariq mo’yluvi tepaga buralgan va qismda o’n ikki yildan buyon xizmat qilayotgan bu odam ilgari pochta yon bo’lgan ekan” deb kimga ta’rif berilgan?

A) Xaye Vestxus B) Kantorek C) Paul Boymer D) Ximmelshtos

15. Erix Mariya Remarkning qaysi asarining ikkinchi nomi “Jannatdagi soyalar” deb nomlanadi?

A) “Qora haykal” B) “Falakning yoqimtoylari bo’lmaydi” C) “Lissabondagi tun” D) “Va’da qilingan yer”

16. Erix Mariya Remark haqidagi ma’lumotlarning nechitasi to’g’ri?

1-maktabda o’qituvchilik qildi

2-kutubxonachilik qildi

3- tijorat bilan shug’ullandi

4-kasalxonada feldsherlik qildi

5-avtomobil shinalari ishlab chiqaradigan firmada ishladi.

A) hammasi to’g’ri B) 1,2, 5 C) 1,2,3 D) 3,4

17. Quyidagi qaysi asar “boy berilgan avlod”ning taniqli vakillaridan birining asari hisoblanmaydi?

A) “Saul” B) “Orzular xonasi” C) Ufqdagi stansiya” D) “Qaytish”

18. ... asarlarda tarbiyaviy xulosalar berilmaydi, har bir o’quvchi asar mazmunidan idroki va tafakkur darajasiga tayanib mustaqil xulosalar chiqaradi. Nuqtalar o’rniga kerakli atamani qo’ying.

A) realizm B) romantizm D) utopizm D) modernizm

19. Daramatik asarlarda qahramonlarning boshqa qahramonlarga yoki tomoshabinlarga qaratilgan nutqi qanday ataladi?

A) diolog B) fars C) monolog D) solilokviy

20. Fitratning quyidagi asarlaridan nechitasi hikoya janrida yozilgan? “Qiyomat”, “Zahroning imoni”, “Oq mozor”, “Qiyshiq eshon”, “Zayd va Zaynab”, “Me’roj”, “Hind itilochilari”

A) barchasi B) 6tasi C) 2tasi D) 4tasi

21. Fitratning “Munozara” asarining ikkinchi nomi qanday ataladi?

A) “Hind sayyohi” B) “Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning munozarasi”

C) “Sayha” D) “Na’ra”

22. “Do’xtir Muhammadiyor” asarining muallifi kim?

A) Cho’lpon B) Fitrat C) Mahmudxo’ja Behbudiy D) Abdulla Qodiriy

23. ”G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” asarida bolaligida o’rmonchi bo’lishni orzu qilgan kim edi?

A) Xaye Vestxus B) Kantorek C) Paul Boymer D) Frans

24. “Bu kitob aybnoma ham, afvnoma ham emas. Bu shunchaki urush dastidan juvonmarg bo’lgan avlod haqidagi, garchi zambarak o’qidan omon qolsa-da, shu urushning qurboniga aylanganlar to’g’risidagi ko’ngil izhoridir”. Ushbu so’zlar qaysi asarning muqaddimasidan olingan?

A) “Abulfayzxon” B) “Yevgeniy Onegin” C) ”G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” D) “Odisiya”

25. . ”G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” asarida o’qituvchi kim ?

A) Xaye Vestxus B) Kantorek C) Paul Boymer D) Ximmelshtos